

GARVARD UNIVERSITETIDA SOTSIOLOGIYA FANINING RIVOJLANISHI.

Savriyeva Dilorom Sirojiddin qizi

Mirzo Ulugʻbek nomidagi Oʻzbekiston Milliy Universiteti
Ijtimoiy fanlar fakulteti Sotsiologiya yoʻnalishi 1-kurs talabasi.

Ilhomov Umrbek

Ilmiy rahbar.

E-mail: savriyevadilorom2@gmail.com<https://doi.org/10.5281/zenodo.15312598>

Annotatsiya. Ushbu maqolada Garvard universiteti tarixi va u yerda sotsiologiya fanining tashkil topishi, rivojlanishi yoritib berilgan. Dastlabki ijtimoiy-falsafiy yondashuvlardan boshlab, XX-asr boshlarida sotsiologiya mustaqil fan sifatida shakllanishi va Pitirim Sorokin hamda Talcott Parsons kabi olimlarning ilmiy hissasi alohida taʼkidlangan.

Shuningdek, Garvard universitetida sotsiologiya fanining nazariy va amaliy yondashuvlar asosida rivojlanib, xalqaro miqyosda oʻz oʻrniga ega boʻlishi haqida fikr yuritiladi.

Kalit soʻzlar: Garvard universiteti, sotsiologiya, Charlstaunlik, Pitirim Sorokin, Talcott Parsons, ijtimoiy qatlamlanish, fan rivojlanishi, sotsiologiya tarixi.

РАЗВИТИЕ СОЦИОЛОГИИ В ГАРВАРДСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ

Аннотация. В данной статье освещаются этапы развития социологии в Гарвардском университете. Описывается путь от первоначальных социально-философских подходов к становлению социологии как самостоятельной дисциплины в начале XX века, с особым акцентом на вклад Питирима Сорокина и Талкотта Парсонса.

Также рассматривается развитие социологии в Гарварде на основе теоретических и эмпирических исследований, что обеспечило её признание на международной арене.

Ключевые слова: Гарвардский университет, социология, Питирим Сорокин, Талкотт Парсонс, структурный функционализм, социальная стратификация, развитие науки, история социологии.

THE DEVELOPMENT OF SOCIOLOGY AT HARVARD UNIVERSITY

Abstract. This article highlights the stages of the development of sociology at Harvard University. It describes the transition from initial socio-philosophical approaches to the establishment of sociology as an independent discipline in the early 20th century, with a special focus on the contributions of Pitirim Sorokin and Talcott Parsons. The article also discusses how theoretical and empirical research at Harvard led to the international recognition of its sociology program.

Keywords: *Harvard University, sociology, Pitirim Sorokin, Talcott Parsons, structural functionalism, social stratification, scientific development, history of sociology.*

Kirish.

Sotsiologiya-jamiyat, ijtimoiy guruhlar va insonlar o'rtasidagi munosabatlarni o'rganadigan fan sifatida XIX-asrda shakllangan AQSHda, xususan, Garvard universiteti sotsiologiya fanining ilmiy asosda rivojlanishi va mustaqil soha sifatida tan olinishida katta rol o'ynaydi. Garvarddagi sotsiologiya fani tarixiga nazar tashlasak, u yerdagi akademik an'analar va buyuk olimlar mehnati asosida bu fan rivojlangan.

Asosiy qism.

Harvard (Garvard) universiteti qo'shma shtatlardagi birinchi oliy o'quv yurtidir. U 1636 yilda Massachusetts ko'rfazi koloniyasi oliy sudi a'zolari tomonidan ovoz berish yo'li bilan tashkil etilgan "yangi kollej" dan o'sdi. O'sha paytda muassasa atigi to'qqiz talaba va bitta o'qituvchidan iborat edi. Uch yil o'tgach, kollejga birinchi xayriyachi, Charlstaunlik yosh missioner jon Harvard nomi berildi, u kelajakdagi Harvard universitetiga butun kutubxonasini va mol-mulkining yarmini meros qilib qoldirdi. Jon Garvardning yodgorligi bugun universitet zali qarshisida, mashhur Garvard sudi hududida joylashgan. Bronza jon Garvard, ehtimol, eng mashhur universitet mezonidir. Bir necha asrlar davomida kichik kollej 20000 ta barcha darajadagi abituriyentlar, shu jumladan bakalavrlar, magistrlar, aspirantlar va professional darajadagi talabalar bilan ulkan muassasaga aylandi.

Bugungi kunda Harvard universiteti butun dunyo bo'ylab talabalarga noyob o'qish tajribasi va chinakam global miqyosdagi ta'limni taklif etadi: uning tarkibiga diplom dasturlari bilan 12 ta avtonom fakultet (yoki maktablar) hamda Radkliff ilg'or tadqiqotlar instituti kiradi.

Harvard universiteti kutubxonasi dunyodagi eng yirik ilmiy kutubxona bo'lib, uning fondi 18,9 million jildni tashkil etadi. Shuningdek, unda 174000 nomdagi davriy nashrlar, 400 millionga yaqin qo'lyozmalar, 10 millionga yaqin fotosuratlar, 56 million arxiv veb-sahifalari, 5.4 terabayt raqamli materiallar mavjud. Ushbu boy to'plamga kirishni 70 ta filialda mingga yaqin xodim ta'minlaydi. Harvard universiteti arxivi nafaqat eng qadimgi, balki mamlakatdagi eng keng qamrovli universitet ilmiy arxivlaridan biridir. Taraqqiyotning sinonimi va bugungi kunda kelajak uchun yaratilgan joy deb atash mumkin bo'lgan Harvard universiteti o'zining qadimiy an'alarini himoya qiladi va hurmat qiladi, ularni barcha yangi avlod talabalariga etkazadi. Harvard universiteti saxiy moliyaviy yordam ko'rsataditalabalarning 60% dan ortig'i har yili 160 million dollardan ortiq stipendiya yoki boshqa moliyaviy yordam oladi, bu butun dunyodagi iqtidorli odamlarga dunyodagi eng yaxshi ta'lim olish, ilg'or tadqiqotlar, noyob

amaliyot dasturlarida qatnashish imkonini beradi. Bugungi kunda Harvardning 360 mingdan ortiq bitiruvchilari Qo'shma shtatlarda va 190 mingga yaqin boshqa mamlakatlarda yashaydilar.

Garvard universitetida sotsiologiyaning rivojlanishini 1930-yildan Pitirim Sorokinning ish boshlashi davridan boshlab ko'rishimiz mumkin. Sorokin Garvardga kelganida, u yerda sotsiologiya bo'limi yo'q edi, lekin yilning oxirida u tashkil etildi va Sorokinning boshqarishiga qo'yishdi. Sorokin sotsiologiya nazariyotchisi va 1960-yillargacha o'z asarlarini nashr ettirgan bo'lsa-da, uning ijodi bugungi kunda hayratlanarli tarzda kam esga olinadi. Uning nazariy qarashlari vaqt sinovlaridan yaxshi o'tmadi. Balki, Sorokinning vaqtinchalik ahamiyati asosan uning Garvard universiteti sotsiologiya bo'limini ochganligi va unga Talkott Parsonsni (u Garvardda iqtisodiyotdan dars berardi) sotsiologiya bo'yicha o'qituvchilikka taklif etganligi bilan izohlanadi. Parsons amerikaliklarni yevropa nazariyotchilari bilan tanishtirib va keyinchalik yirik sotsiologlar sifatida yetishib chiqqan ko'plab talabalarni tarbiyalagan uchun Amerika sotsiologiyasida obro'-e'tiborli shaxsga aylandi.

Parsons Sorokinning o'rniga sotsiologiya bo'limi boshqaruvini qabul qiladi va "Sotsial munosabatlar bo'limi" deb qayta nomlaydi (Department of Social Relations). Bu borada Sorokin shunday deydi: men "Sotsial munosabatlar bo'limi"ni tashkil etish uchun sotsial psixologiy va madaniy antropologiyani qo'shib yuborish davridan boshlab qilinayotgan ishlarga va sotsiologiyani bu turlicha fanlarning eklektik massasiga qo'shib yuborilishiga javobhar emasman... Sotsial munosabatlar bo'limi... mening rahbarligim ostidagi sotsiologiya bo'limi... singari bunchalik ko'p mashhur sotsiologlarni yetishtirib chiqarishi amri mahol.

Oxir-oqibat Sorokin Garvard maktabida yakkalanib qoldi. Unga "yakka tadqiqotchi" tamg'asi bosildi, va unga faqat "universitet eshiklari ostiga Parsonsning o'z g'oyalarini o'g'irlaganligi to'g'risidagi arizalarni tiqishtirish" dan boshqa iloji qolmaydi.

Talkott Parsons (1902-1979). Bir nechta ocherklarning ilgarigi nashrlariga qaramay, Parsonsning asosiy hissasi uning karerasining boshlarida keyinchalik mashhur sotsiologiya nazariyotchilari bo'lib yetishgan aspirantlarga ta'siri bilan o'lchanadi. Ularning ichida eng mashhuri 1936-yilda falsafa doktori maqomini olgan va Kolumbiya universitetida Parsons yo'nalishi taraqqiyotining yuragini tashkil etgan Robert Merton edi.

Merton Sorokinning assistenti sifatida ishlardi, lekin Sorokinning nazariy yo'nalishlarini qo'llab-quvvatlamagan Merton unga dissertatsiyasiga izohlarini ko'rsatganda, Sorokin shunday javob beradi: "Hisobot ishi sifatida bu yaxshi, siz taxminan minus besh olishingiz mumkin, lekin chuqur va yagona muhim nuqtai-nazaridan, men ishingiz borasida bir qancha keskin tanqidiy fikrlarni bildirishim lozimdir".

Xulosa.

Garvard universiteti sotsiologiya fanining rivojlanishida dunyo miqyosida muhim markazlardan biriga aylangan. Dastlabki davrlarda falsafa va siyosatshunoslik doirasida rivojlangan sotsiologiya, Pitirim Sorokin tomonidan mustaqil fan sifatida shakllantirildi. Uning ilmiy faoliyati, shuningdek, Talcott Parsonsning strukturaviy funksionalizm nazariyasi Garvarddagi sotsiologiya maktabining dunyodagi nufuzini oshirdi. Bugungi kunda Garvard universiteti sotsiologiyasi nafaqat nazariy, balki empirik tadqiqotlar orqali ham zamonaviy jamiyat muammolarini o'rganishda yetakchi o'rinni egallab kelmoqda.

REFERENCES

1. Jiyamuratova.G.SH. Sotsiologiya tarixi/darslik - Toshkent:" Innovatsiya-Ziyo"2020,466 b.
2. <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/33589?ysclid=ma0xrzd4vw725468502>
3. [file:///C:/Users/user/Downloads/409-412%20\(1\).pdf](file:///C:/Users/user/Downloads/409-412%20(1).pdf)